



## XVII- XIX ASARLARDA AQSH

*Termiz davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti*

*Tarix ta'lim yo'nalishi*

*3- kurs 303- guruh talabasi*

***Bo'rixonova Mahfuza***

*tel: +998940112590*

*Tarix ta'lim yo'nalishi*

*3- kurs 303- guruh talabasi*

***Bobogulova Sarvinoz***

*tel: +998990032103*

**Anotatsiya:** AQSHning XVII asrdan XIX asrgacha bo'lган davrdagi tarixi boy va murakkab voqealar zanjiri bilan bog'liq bo'lib, mamlakatning bugungi kunda shakllangan siyosiy va ijtimoiy tuzilmasining asosi o'sha davrda qo'yilgan. Quyidagi maqolada ushbu davrni bosqichma-bosqich ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Massachusetts, indeyeslar, eksimoslari, shtat.

**Anotation:** the history of the United States from the 17th to the 19th centuries is associated with a rich and complex chain of events, and the basis of the political and social structure of the country, formed today, was laid at that time. In the article below, we will look at this period step by step.

**Keywords:** Massachusetts, indeyes, eximos, state.

**Аннотация:** история США с семнадцатого по девятнадцатый век связана с богатой и сложной цепочкой событий, и именно в этот период была заложена основа политической и социальной структуры страны, которая сформировалась сегодня. Рассмотрим этот период поэтапно в статье ниже.

**Ключевые слова:** Массачусетс, индейцы, эксимосы, штат.



## Kirish

Olimlarning fikricha, amerika qit'asiga dastlabki odamlar Shimoliy Osiyodan hozirgi Bering bo‘g‘ozi orqali buyuk muzlik davrida, bundan 40 ming yil avval o‘ta boshlagan va bu jarayon uzoq davom etgan. Natijada bu yerkarta yevropaliklar kelguniga qadar ham ko‘psonli qabila va elatlar shakllangan.<sup>1</sup> Ular indeyeslar va eksimoslar edi. Amerika aholisi o‘rtasida bir necha tavofutlar ro‘y bergan.

XVII asrlarda Amerika iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlana boshladi. 1600-yillarda Britaniya, Fransiya, Ispaniya va Gollandiya Shimoliy Amerikaga o‘z koloniyalarini asoslash bilan shug‘ullanib kelgan edi. Shu davrda AQSh hududida birinchi Britaniya koloniyalari tashkil etildi. 1607-yilda inglizlar birinchi barqaror koloniyasini Virjiniya shtatining Jamestown shahrida barpo etishdi. Bu davrdagi koloniylar iqtisodiy jihatdan rivojlangan va asosan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan. Ingliz koloniylarining asosiy iqtisodiy faoliyati tamaki, shakarqamish, paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va eksport qilishdan iborat edi. Diniy va siyosiy sabablar: Britaniyadagi din va siyosiy zulmdan qochgan ko‘plab insonlar Shimoliy Amerikaga ko‘chib o‘tishdi. Ayniqsa, Massachusettsda ingliz puritanlari o‘z diniy e’tiqodlarini amalga oshirish uchun yangi jamiyat tashkil etishdi. Ushbu mustamlakalar Britaniya hukumati bilan qisman mustaqillikda bo‘lgan bo‘lsa-da, o‘z hududlarida o‘zlariga tegishli qonun-qoidalarni yaratish imkoniyatiga ega edilar. Iqtisodiy rivojlanish va qullik: 1619-yildan boshlab qullik Shimoliy Amerikadagi koloniyalarda keng qo’llanila boshladi. Janubiy koloniylar, xususan, tamaki va paxta dalalarida ishlash uchun afrikalik quillardan foydalangan. Bu esa keljakda mamlakat ichida ijtimoiy va iqtisodiy ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo‘ldi. Kolonistlar yer resurslariga ega bo‘lish, iqtisodiy va diniy erkinlik izlash maqsadida Amerikaga ko‘chib keldilar. 1620-yilda Plymut koloniyasini asos solingan va bu yerda o‘rnatilgan ijtimoiy, siyosiy tizimlar keyinchalik Amerika mustaqilligi uchun poydevor yaratdi.

<sup>1</sup> T.O. Salimov; F.E.Sultonov - Juhon tarixi; Toshkent- 2017; 142- bet



XVIII asr AQSh uchun mustaqillik va milliy uyg'onish davri hisoblanadi. 1775–1783-yillardagi Amerika Mustaqillik Urushi: Britaniya koloniyalining mustaqillik uchun kurashgan davri hisoblanadi. 1776-yil 4-iyulda Mustaqillik Deklaratsiyasi e'lon qilinib, AQShning Britaniyadan mustaqil davlat sifatida ajralishi rasmiylashtirildi. 1787-yilda AQSh Konstitutsiyasi qabul qilindi.<sup>2</sup>Bu hujjat AQShning huquqiy va siyosiy Mustamlakachilik davri (XVII asrning boshidan XVIII asrga qadar) AQSH hududidagi dastlabki yevropalik mustamlakachilar asosan Britaniya, Fransiya, Gollandiya va Ispaniyadan kelgan.

### Asosiy qism.

Mustaqillik uchun kurash va Amerika inqilobi (XVIII asr o'rtalari) XVIII asrning o'rtalariga kelib, Shimoliy Amerikadagi ingliz koloniyalari Britaniya hukumati bilan iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlarga duch keldi. Britaniya hukumati o'z koloniyalaridan ko'proq foyda olish maqsadida yangi soliqlar joriy qildi. Ayniqsa, "Qog'oz solig'i" (Stamp Act) va "Choy solig'i" kabi qonunlar koloniyalardagi norozilik harakatlarini kuchaytirdi. 1770-yillar va Bostondagi voqealar: 1773-yilda Bostonda ingliz choy solig'iga qarshi norozilik namoyishi yuz berdi. "Bostondagi choy yuvoshligi" (Boston Tea Party) nomli voqeа natijasida ingliz choyi Boston bandargohida dengizga tashlandi. Bu harakat koloniylar orasida birlikni kuchaytirdi va mustaqillik uchun kurashga sabab bo'ldi.<sup>3</sup>Mustaqillik Deklaratsiyasi va urush: 1776-yil 4-iyulda kontinental kongress Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qildi, bu hujjat orqali Qo'shma Shtatlar Britaniya imperiyasidan rasman ajralib chiqdi. Deklaratsiya inson huquqlari, erkinlik va tenglik g'oyalariga asoslangan edi. Mustaqillik uchun urush 1783-yilda AQSHning rasmiy mustaqilligi bilan tugadi. AQSH Konstitutsiyasining yaratilishi va federal tuzilmaning shakllanishi (XVIII asr oxiri) 1787-yilda Filadelfiya shahrida Konstitutsiyaviy konvent chaqirilib, yangi davlat tuzilishini yaratish uchun AQSH Konstitutsiyasi ishlab chiqildi. Konstitutsiya hukumatning uch shoxobchasini: ijroiya, qonunchilik va sud tizimlarini tashkil etdi

<sup>2</sup> Sh.Ergashev; Jahon tarixi 1- qism; TOSHKENT "O'ZBEKISTON" 2013; 313- bet

<sup>3</sup> Bailyn, Bernard - The Ideological Origins of the American Revolution. Harvard University Press, 1967.



va davlatning federal tizim asosida boshqarilishini belgiladi.<sup>4</sup> Konstitutsiyaviy muhokamalar: Konstitutsiyani ishlab chiqish jarayonida davlatlar orasidagi vakolatlar bo'yicha muammolar ko'tarildi. Shuningdek, qullik masalasi, shtatlar orasidagi iqtisodiy farqlar va boshqa ijtimoiy masalalar muhokama qilindi. Natijada "Bo'lim va tekshiruv" (checks and balances) tizimi yaratilib, federal hukumat va shtatlar o'rtasidagi vakolatlar muvozanatga keltirildi. Konstitutsyaning kuchga kirishi: 1789-yilda Konstitutsiya rasmiy ravishda kuchga kirdi va Jorj Vashington birinchi prezident sifatida saylandi. Shu tariqa AQSHda federal tizimning asosi qo'yildi va demokratik boshqaruv usuli mustahkamlandi. XIX asr: kengayish, rivojlanish va ijtimoiy o'zgarishlar XIX asr AQSH tarixida juda muhim davr hisoblanadi. Shu davrda mamlakat hududiy jihatdan kengaydi va iqtisodiy rivojlanish kuchayib bordi. Hududiy kengayish: 1803-yilda AQSH Fransiyadan Luizianani sotib oldi va o'z hududini ikki barobarga kengaytirdi. Keyinchalik Meksika bilan urush natijasida Kaliforniya va Texas kabi yangi hududlar qo'shildi. Bu davrda "Manifest Destiny" (Taqdiri taqdirlangan) g'oyasi ommalashdi, ya'ni AQSH o'z hududlarini Atlantika okeanidan Tinch okeanigacha kengaytirishi kerak, degan qarash mavjud edi. Industrial inqilob va iqtisodiy rivojlanish: XIX asr davomida AQSHda sanoatlashish jarayoni avj oldi. Telegraf va temir yo'llar rivojlandi, fabrikalar ko'paydi va iqtisodiy faoliyat yuksaldi. Ayniqsa shimoliy hududlarda sanoat rivojlandi va bu esa janubiy qishloq xo'jaligi hududlari bilan iqtisodiy farqlarni kuchaytirdi. Fuqarolar urushi va qullikning bekor qilinishi: 1861-yilda AQSHda janubiy va shimoliy shtatlar orasida qullik masalasiga oid ziddiyatlar tufayli Fuqarolar urushi boshlandi. Urush 1865-yilda janubiy shtatlarning mag'lubiyati bilan tugadi va bu AQSHning birligi uchun muhim burilish bo'ldi. Fuqarolar urushi natijasida qullik rasman bekor qilindi va yangi qonunlar qabul qilinib, fuqarolik huquqlari ta'minlandi. XVII- XIX asrlarda Amerika Qo'shma Shtatlarining iqtisodiy, siyosiy va tashqi siyosatda, rivojlanishga qadam qo'ygan davri hisoblanadi.

<sup>4</sup> Sh.Ergashev; Jahon tarixi 1- qism; TOSHKENT "O'ZBEKISTON" 2013; 313- bet

**Xulosa**

XVII asrdan XIX asrgacha bo'lgan davrda AQSH juda ko'p o'zgarishlarga duch kelgan, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy jihatdan rivojlangan. Bu davrda asosiy siyosiy tamoyillar va qonunchilik asoslari shakllandi, kengayish jarayonlari yuz berdi va mamlakat o'z mustahkam poydevorini yaratishga muvaffaq bo'ldi. AQSh hududi ham kengaydi va tashqi siyosatda faol ishtirok etgan. AQSH o'sha vaqtarda dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatorida turar edi. AQSHda " Mustaqillik deklaratsiyasini" qabul qilinishi, amerika xalqini yana bir orzu- istaklari amalga oshishi edi. Hozirgi kunda AQSH dunyoning eng rivojlangan davlatidir. The countries are walking shoulder to shoulder on the path of development as good neighbors and mutually beneficial partners.

In particular, in the last five years, the volume of mutual trade has more than doubled, and by the end of this year it will reach five billion dollars.<sup>5</sup> Hozirgi kunga qiyoslaydigan bo'lsak AQSH iqtisodiy ham siyosiy jihatdan jahon hamjamiyatida e'tirof etilayotgan davlatdir!

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'. SALIMOV; F.E.SULTONOV - JAHON TARIXI; TOSHKENT- 2017; 142-BET
2. SH.ERGASHEV; JAHON TARIXI 1- QISM; TOSHKENT "O'ZBEKISTON" 2013; 313- BET
3. BAILYN, BERNARD - THE IDEOLOGICAL ORIGINS OF THE AMERICAN REVOLUTION. HARVARD UNIVERSITY PRESS, 1967.
4. WOOD, GORDON S. - THE AMERICAN REVOLUTION: A HISTORY. MODERN LIBRARY, 2003.
5. MCPHERSON, JAMES M. - BATTLE CRY OF FREEDOM: THE CIVIL WAR ERA. OXFORD UNIVERSITY PRESS, 1988.

<sup>5</sup> THE CULTURAL AND EDUCATIONAL RELATIONS OF THE STATES OF UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE; Urolova Malika Tulkin kizi Teacher, Termez State Pedagogical Institute.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578107>



6. FONER, ERIC - THE STORY OF AMERICAN FREEDOM. W.W. NORTON & COMPANY, 1998.
7. ZINN, HOWARD - A PEOPLE'S HISTORY OF THE UNITED STATES. HARPER & ROW, 1980.
8. ELLIS, JOSEPH J. - FOUNDING BROTHERS: THE REVOLUTIONARY GENERATION. KNOPF, 2000.
9. BRANDS, H.W. - AMERICAN COLOSSUS: THE TRIUMPH OF CAPITALISM, 1865-1900. DOUBLEDAY, 2010.
10. THE CULTURAL AND EDUCATIONAL RELATIONS OF THE STATES OF UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE; UROLOVA MALIKA TULKIN KIZI TEACHER, TERMEZ STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE.  
[HTTPS://DOI.ORG/10.5281/ZENODO.10578107](https://doi.org/10.5281/ZENODO.10578107).